

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQARISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIV TA'LIM MISOLIDA).....	289
Kariyeva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	



O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI

Umed Farmonkulovich Radjabov

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Sport tashkilotlari boshqaruvining institutsional mexanizmlari, strategik rejalashtirish tizimi, moliyaviy boshqaruv, raqamli monitoring hamda marketing kommunikatsiyalarining o'rni ilmiy asosda o'rganildi. Tadqiqot davomida sport federatsiyalari faoliyatini samarali tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinib, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra sport federatsiyalarining boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sport federatsiyasi, sport boshqaruvi, modernizatsiya, sport menejmenti, strategik boshqaruv, raqamli monitoring, sport siyosati, sport marketingi.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of modernizing the management system of sports federations and associations in Uzbekistan. The institutional mechanisms of sports organization management, strategic planning systems, financial management, digital monitoring, and the role of marketing communications are examined on a scientific basis. The study analyzes modern approaches to the effective organization of sports federations' activities and develops a conceptual model aimed at modernizing the management system. Based on the research results, scientific and practical recommendations for improving the management system of sports federations are proposed.

Key words: sports federation, sports governance, modernization, sports management, strategic management, digital monitoring, sports policy, sports marketing.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты модернизации системы управления спортивными федерациями и ассоциациями в Узбекистане. Научно исследованы институциональные механизмы управления спортивными организациями, система стратегического планирования, финансовое управление, цифровой мониторинг, а также роль маркетинговых коммуникаций. В ходе исследования проанализированы современные подходы к эффективной организации деятельности спортивных федераций и разработана концептуальная модель модернизации системы управления. По результатам исследования предложены научно-практические рекомендации по совершенствованию системы управления спортивными федерациями.

Ключевые слова: спортивная федерация, управление спортом, модернизация, спортивный менеджмент, стратегическое управление, цифровой мониторинг, спортивная политика, спортивный маркетинг.

KIRISH

Sport sohasi bugungi kunda jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida qaraladi. U nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki yosh avlodni tarbiyalash, milliy birlikni mustahkamlash hamda davlatning xalqaro nufuzini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli sport tashkilotlarini samarali boshqarish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, sport infratuzilmasini rivojlantirish, professional sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda sportni ommalashtirishga qaratilgan qator davlat dasturlari qabul qilingan. Sport federatsiyalari va assotsiatsiyalari sport tizimining asosiy boshqaruv institutlari hisoblanadi. Ular sport turlarini rivojlantirish, sportchilarni tayyorlash, milliy terma jamoalarni shakllantirish hamda xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlik qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi.



Shu bilan birga, zamonaviy global sport tizimi sport federatsiyalarini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, boshqaruv tizimini raqamlashtirish, strategik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida sport sohasini rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchi aholi qatlami yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil holatida jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar ulushi 63,8 % ni tashkil etgan bo'lib, shundan erkaklar — 69,1 %, ayollar esa 58,5 % ni tashkil etgan.

1-jadval. O'zbekistonda 2020-2024 yillarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar ulushi¹

Hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	70,0	72,4	72,7	73,1	73,6
Andijon viloyati	57,1	56,1	56,8	63,9	64,7
Buxoro viloyati	61,8	62,6	63,2	63,0	63,2
Jizzax viloyati	60,5	60,7	61,1	68,0	68,2
Qashqadaryo viloyati	66,5	66,4	67,2	65,9	66,1
Navoiy viloyati	63,7	64,5	65,1	71,1	69,7
Namangan viloyati	69,4	69,6	69,2	64,1	63,6
Samarqand viloyati	62,0	61,9	61,5	62,9	63,2
Surxondaryo viloyati	60,7	60,4	61,6	67,2	67,3
Sirdaryo viloyati	62,1	63,8	65,1	54,8	54,5
Toshkent viloyati	52,6	51,6	52,6	56,9	57,1
Farg'ona viloyati	53,6	54,0	55,8	53,4	53,6
Xorazm viloyati	49,8	50,2	51,8	72,5	73,1
Toshkent shahri	71,7	75,3	71,4	63,7	63,9
Respublika bo'yicha jami:	61,2	61,8	62,3	63,7	63,8

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yil davomida mamlakatimiz aholisining 63,8 foizi jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar ulushini tashkil etgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida — 73,6 foiz, eng quyi ko'rsatkich esa Farg'ona viloyatida — 53,6 foizni tashkil etgan.

2020–2024-yillar davomida mamlakatimiz aholisining jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish darajasi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, eng yuqori ko'rsatkich 2021-yilda Toshkent shahrida — 74,3 foizni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich esa 2020-yilda Xorazm viloyatida — 49,8 foiz darajasida qayd etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish masalasi sport menejmenti hamda sport siyosati sohasidagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sport tashkilotlarining samarali faoliyati ko'p jihatdan ularning boshqaruv tizimi samaradorligiga bog'liq.

¹ Jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari/ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi statistika byulletenining 2020-2024 yy. bo'yicha muallif tomonidan tayyorlangan.



Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda sport federatsiyalarini boshqarish masalalari asosan sport menejmenti, sport siyosati va sport tashkilotlarining institutsional rivojlanishi nuqtai nazaridan o'rganilgan. Jumladan, B. Houlihan va M. Green sport siyosati hamda sport tashkilotlari boshqaruvini davlat boshqaruvi tizimi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilib, sport federatsiyalarining samarali faoliyati strategik boshqaruv va institutsional muvofiqlashtirishga asoslanishini ta'kidlaydilar [1]. Ularning fikricha, sport federatsiyalarining faoliyati davlat siyosati, sport infratuzilmasi hamda moliyaviy resurslar bilan chambarchas bog'liq.

Sport menejmenti sohasidagi yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblangan R. Hoyer sport tashkilotlarini boshqarish tizimining samaradorligi bir qator omillarga, jumladan tashkiliy tuzilma, strategik boshqaruv, moliyaviy boshqaruv hamda kommunikatsiya tizimining rivojlanganligiga bog'liqligini ta'kidlaydi [2]. Uning tadqiqotlarida sport federatsiyalari boshqaruvida shaffoflik, hisobdorlik va strategik rejalashtirish muhim boshqaruv tamoyillari sifatida ko'rsatilgan.

Sport boshqaruvi nazariyasini rivojlantirishda V. Platonovning ilmiy ishlari ham alohida ahamiyatga ega. U sport tizimini rivojlantirishda sport tashkilotlari boshqaruvining ilmiy asoslangan strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlab, sport federatsiyalari faoliyatining samaradorligi sportchilarni tayyorlash tizimi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi [3].

So'nggi yillarda sport boshqaruvi sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari ham ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, zamonaviy sport menejmenti konsepsiyalarida raqamli monitoring tizimlari sport tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarish va tahlil qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda sport boshqaruvi muammolari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sport tizimini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, sport infratuzilmasini rivojlantirish hamda sport menejmentini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Jumladan, Sh. Xonkeldiyev sport boshqaruvi tizimini takomillashtirishda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish muhim ekanligini ta'kidlaydi [4]. A. Abdullayevning tadqiqotlarida esa sport menejmenti tizimini modernizatsiya qilish sport tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko'rsatilgan [5].

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini kompleks modernizatsiya qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, sport federatsiyalari boshqaruvini strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, raqamli monitoring hamda marketing kommunikatsiyalarini yagona tizim doirasida muvofiqlashtirish masalalari alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlar tahlili, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil hamda modellashtirish usuli. Tadqiqot davomida sport federatsiyalarining boshqaruv tizimi tahlil qilinib, ushbu tahlillar asosida boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatdi.

Strategik boshqaruv tizimini rivojlantirish.

Sport federatsiyalari faoliyatini samarali tashkil etish uchun strategik boshqaruv tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Strategik boshqaruv sport federatsiyalarining uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini belgilash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Strategik boshqaruv tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: sport turlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish; sportchilarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish; xalqaro musobaqalarda ishtirok etish strategiyasini ishlab chiqish; sport infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish. Strategik boshqaruv sport federatsiyalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish.

Sport federatsiyalari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarni boshqarish tizimiga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport federatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarni rivojlantirish zarur: homiylik tizimini rivojlantirish; sport marketingi orqali qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilish; grantlar va investitsiyalarni jalb qilish; moliyaviy boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash. Moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish sport federatsiyalarining mustaqil va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Raqamli boshqaruv tizimini joriy etish.

Zamonaviy sport boshqaruvi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sport federatsiyalarining boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda raqamli monitoring tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.



Raqamli boshqaruv tizimi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: sportchilar natijalarini monitoring qilish; musobaqalar statistikasi va tahlilini yuritish; trenerlar faoliyatini baholash; sport tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish. Bu esa boshqaruv qarorlarini tezkor va samarali qabul qilish imkonini beradi.

Marketing va kommunikatsiya strategiyalarini rivojlantirish.

Sport federatsiyalari faoliyatida marketing kommunikatsiyalarining rivojlanishi sportni ommalashtirish hamda sport brendini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Marketing faoliyati quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: sport tadbirlarini targ'ib qilish; ijtimoiy tarmoqlarda sport brendini rivojlantirish; ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni rivojlantirish; sport turizmini rivojlantirish.

Hududiy sport tizimini integratsiyalash.

Sport federatsiyalari boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda hududiy sport tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Hududiy integratsiya quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: hududiy sport maktablari faoliyatini muvofiqlashtirish; hududiy sport musobaqalarini tashkil etish; sport infratuzilmasini rivojlantirish; sport zaxirasini tayyorlash tizimini rivojlantirish.

Mazkur tadqiqot natijalari sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish sport tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida olingan natijalar mavjud ilmiy tadqiqotlar hamda xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari sport federatsiyalarining samarali faoliyati strategik boshqaruv tizimining mavjudligi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan B. Houlihan va M. Green, sport siyosati hamda sport tashkilotlari boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'kidlab, sport federatsiyalarining rivojlanishi strategik rejalashtirish va institutsional muvofiqlashtirishga asoslanishi lozimligini qayd etadi [1]. Tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ya'ni sport federatsiyalarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash uchun strategik boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur.

Ikkinchidan, sport federatsiyalarining samarali faoliyati moliyaviy boshqaruv tizimining rivojlanganligi bilan ham bog'liq. Sport menejmenti sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda sport tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi ularning mustaqil faoliyat yuritishi uchun muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sport federatsiyalarida moliyaviy resurslarni boshqarish tizimini takomillashtirish, xususan homiylik mablag'lari, investitsiyalar va grantlarni jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa sport federatsiyalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bilan birga ularning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari sport federatsiyalari boshqaruv tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Zamonaviy sport menejmenti konsepsiyalarida raqamli boshqaruv tizimlari sport tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beruvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sport federatsiyalarida raqamli monitoring tizimlarini joriy etish sportchilar faoliyatini baholash, musobaqalar statistikasi hamda sport tashkilotlari faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradi.

To'rtinchidan, sport federatsiyalarining samarali faoliyati marketing va kommunikatsiya strategiyalarining rivojlanganligi bilan ham bog'liq. Zamonaviy sport menejmenti nazariyasida sport marketingi sport tashkilotlarining brend imidjini shakllantirish, sport tadbirlarini ommalashtirish hamda qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sport federatsiyalarida marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish sport turlarini ommalashtirish hamda sportga keng jamoatchilikni jalb qilishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, sport federatsiyalari boshqaruv tizimining samaradorligi hududiy sport tashkilotlari bilan hamkorlik darajasiga bog'liq. Tadqiqot natijalari sport federatsiyalari va hududiy sport tashkilotlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish sport tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Hududiy sport maktablari, sport klublari hamda hududiy federatsiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish sport zaxirasini tayyorlash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari sport federatsiyalari boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish sport sohasining institutsional rivojlanishini ta'minlashini ham ko'rsatdi. Sport federatsiyalarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun zamonaviy sport menejmenti tamoyillarini joriy etish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish hamda strategik boshqaruv tizimini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish sport tizimining samaradorligini oshirish, sportchilar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda O'zbekiston sportining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini samarali boshqarish tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi.

O'zbekistonda sport federatsiyalari boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish konseptual modeli



1-rasm. Sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini samarali boshqarish tizimini modernizatsiya qilish konseptual modeli.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda sport federatsiyalari va assotsiatsiyalarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish sport tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil ekani aniqlandi.

Birinchidan, sport federatsiyalari sport tizimining asosiy boshqaruv institutlari hisoblanadi va ularning faoliyati sport turlarini rivojlantirish hamda sportchilarni tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, sport federatsiyalari boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish sport menejmentining zamonaviy tamoyillarini joriy etishni talab qiladi. Xususan, strategik boshqaruv, moliyaviy boshqaruv, raqamli monitoring hamda marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalarni sport federatsiyalari faoliyatiga joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirish, sportchilar faoliyatini monitoring qilish hamda sport tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, sport federatsiyalari faoliyatida marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish sportni ommalashtirish hamda sport brendini shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, sport federatsiyalari va hududiy sport tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish sport tizimining kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, sport federatsiyalari boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish sport sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda O'zbekiston sportining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foyradalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Houlihan B., Green M. Routledge Handbook of Sports Development. – London: Routledge, 2011.
2. Hoyer R., Smith A., Nicholson M. Sport Management: Principles and Applications. – London: Routledge, 2015.
3. Platonov V. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. – Kiev, 2013.
4. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya va sport menejmenti. – Toshkent, 2018.
5. Xonkeldiyev Sh. Sport boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sportni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
7. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi materiallari.
8. Olympic Charter. – International Olympic Committee, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>